



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZELENOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
Abdullaeva Zaynab Ruslanovna	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELИ ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEХANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhridin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIЈAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI	263
Karimov Eminjon Gapardjonovich	



KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy makonda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va bozor munosabatlarning murakkablashuvi korxonalarining raqobat muhitidagi mavqei belgilovchi omillarga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Zamonaviy sharoitda korxonalar faoliyatining barqarorligi nafaqat ishlab chiqarish hajmi yoki moddiy resurslar bilan, balki ularda mavjud axborot resurslarining sifati va ulardan foydalanish samaradorligi bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, moliyaviy tahlilning axborot bazasi korxonaning strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, moliyaviy holatini baholash va tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va uning raqobatbardoshligini ta'minlash ko'p jihatdan moliyaviy axborotlardan foydalanish sifati bilan belgilanadi. Moliyaviy tahlil axborot bazasi korxonaning moliyaviy natijalari, aktivlari, majburiyatlari, pul oqimlari va iqtisodiy ko'rsatkichlari haqidagi ma'lumotlarni tizimli shaklda jamlash hamda qayta ishlash imkonini beradi. Mazkur tizim korxonalar boshqaruvining axborot ta'minoti sifatida nafaqat ichki iqtisodiy jarayonlarni baholash, balki tashqi bozor omillarining ta'sirini ham aniqlash imkoniyatini yaratadi [2].

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan moliyaviy boshqaruv tizimlari korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli iqtisodiyotning raqamli rivojlanishi sharoitida korxonalar moliyaviy tahlil axborot bazalarini takomillashtirish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini keng joriy etishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga oid Farmonida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy vositalarni joriy etish, iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar ulushini oshirish hamda elektron ma'lumotlar almashuvini rivojlantirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan [3].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlari haqqoniy, to'liq va ishonchli bo'lishi zarurligi ta'kidlangan [4]. Ushbu talablar moliyaviy tahlilning sifatli axborot bazasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini belgilab beradi. Chunki korxonalar faoliyati natijalarining to'g'ri aks ettirilishi va ular asosida tahliliy xulosalar ishlab chiqilishi boshqaruv samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishning ahamiyatiga alohida to'xtalib, shunday ta'kidlagan: "Sun'iy intellekt va raqamlashtirish bugungi kunda faqat texnologik yangilanish emas, balki iqtisodiyot samaradorligi, davlat boshqaruvi sifati, xizmatlar qulayligi, eksport salohiyati va mamlakat raqobatbardoshligini belgilaydigan strategik yo'nalishdir" [5]. Mazkur fikr iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarida, jumladan, korxonalar boshqaruvida ham raqamli axborot tizimlaridan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, mazkur yo'nalishda ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va tahliliy qarorlar qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilangan. Bu esa korxonalar moliyaviy boshqaruv tizimlarini rivojlantirish, tahliliy ma'lumotlar bazasining imkoniyatlarini kengaytirish va raqobatbardoshlik darajasini oshirish uchun muhim asos hisoblanadi.

Shu asnda, mazkur mavzuning dolzarbligi korxonalarda moliyaviy axborotlar bazasini shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida qator muammolar mavjudligi bilan izohlanadi. Jumladan, ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy ma'lumotlar bazalarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi, tahlil tizimlarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanmaganligi, ma'lumotlarni qayta ishlashning eskirgan mexanizmlardan foydalanilishi va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlarida axborotlardan samarali foydalanilmasligi kuzatilmoqda. Mazkur holatlar korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi va ularning bozor sharoitidagi raqobat ustunligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar faoliyatining samaradorligini va ularning bozor sharoitidagi raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy tahlil axborot bazasining ahamiyati iqtisodiy tadqiqotlarda dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllanib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida korxonalar boshqaruvi sifatini oshirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish hamda strategik qarorlar qabul qilish jarayonlari bevosita axborot bazasining ishonchliliigi va sifatiga bog'liqdir.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ushbu masalaning turli jihatlarini o'rganilgan. Jumladan, Z.Z. Ibragimova korxonalarda boshqaruv hisobi axborot bazasini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilib, boshqaruv qarorlarining samaradorligi axborot tizimining to'liqligi va sifatiga bevosita bog'liqligini asoslagan. Tadqiqotda boshqaruv hisobini tashkil etishda nazariy, uslubiy va tashkiliy omillar o'rtasidagi bog'liqlik alohida yoritilgan [6].



Shuningdek, H.A. Abdurazzoqov, O.O. Isakov va B.M. Mahmudov iqtisodiy tahlil bosqichlarida axborot bazasini shakllantirish hamda ma'lumotlar sifati masalalarini tadqiq etganlar. Mualliflar iqtisodiy tahlil natijalarining aniqligi ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi, o'z vaqtida shakllantirilishi va ularning to'liqligiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar [7].

D. Kudbiyev, N.T. Qudbiyev va Z.T. Imomova tomonidan moliyaviy hisobotlardan moliyaviy menejmentda foydalanish masalalari tadqiq etilib, korxonalar faoliyatini boshqarishda moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ahamiyati asoslangan. Tadqiqotchilar moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil qilish korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilishini qayd etganlar [8].

Bundan tashqari, J.M. Pardayev moliyaviy rejalashtirish tizimining mavjud muammolarini o'rganib, moliyaviy ma'lumotlarni raqamlashtirish va prognozlash mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan. Muallifning fikricha, sifatlilik moliyaviy axborot tizimi korxonalar raqobat ustunliklarini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi [9].

D.A. Muxamadjonova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sun'iy intellekt va mashinali o'rganish texnologiyalarining korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishdagi imkoniyatlari o'rganilgan. Muallif zamonaviy raqamli texnologiyalar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va moliyaviy xavflarni prognozlash imkonini yaratishini asoslagan [10].

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham korxonalar raqobatbardoshligi va moliyaviy axborot tizimi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik keng o'rganilgan. J. Horvathova va M. Mokrisova korxonalar raqobatbardoshligi moliyaviy barqarorlik hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari bilan belgilanishini qayd etganlar [11]. Ular korxonalar raqobatbardoshligini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda Economic Value Added (EVA) indikatoridan foydalanish maqsadga muvofiqligini asoslaganlar.

M. Sedliacikova, M. Moresova, P. Alac va J. Drabek tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda menejmlarning moliyaviy qarorlariga xulq-atvor omillarining ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari inson omili moliyaviy qarorlar sifatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini va bu holat korxonaning moliyaviy barqarorligi hamda raqobatbardoshligida aks etishini ko'rsatgan [12].

N. Tyukhtenko, S. Makarenko, N. Oliinyk va E. Portugal korxonalar raqobatbardoshligini baholashning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqib, integral ko'rsatkichlar asosida baholash tizimini taklif qilganlar [13].

Shuningdek, R.Y. Emadakov korxonalar raqobatbardoshligini shakllantiruvchi omillarni tizimlashtirib, uni korxonalar ichki salohiyati va tashqi muhit omillarining kompleks natijasi sifatida tavsiflagan [14].

Yuqorida keltirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy axborot sifati, tahlil ma'lumotlarning ishonchilligi va ulardan samarali foydalanish korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda moliyaviy tahlil axborot bazasining korxonalar raqobatbardoshligiga kompleks ta'siri yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarurati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda korxonalar moliyaviy tahlil axborot bazasining raqobatbardoshlikka ta'sirini baholash uchun tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik va moliyaviy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini "Farg'onaazot" AJning 2023–2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari, buxgalteriya ma'lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy manbalar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida likvidlik, moliyaviy barqarorlik, rentabellik va kapital tarkibi ko'rsatkichlari hisoblanib, ularning korxonalar raqobatbardoshligiga ta'siri kompleks tahlil qilindi. Natijalar asosida moliyaviy axborot bazasining boshqaruv samaradorligi va raqobat ustunligini shakllantirishdagi o'zni baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish va uning uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlashda moliyaviy tahlil axborot bazasi alohida strategik ahamiyatga ega. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliyaviy axborotlar oddiy statistik ma'lumotlar yig'indisi sifatida emas, balki korxonalar faoliyatining barcha jihatlarini tavsiflovchi va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda foydalaniladigan muhim resurs sifatida qaralmoqda. Moliyaviy tahlil axborot bazasi tarkibiga moliyaviy hisobotlar, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, boshqaruv hisobi ko'rsatkichlari, operatsion faoliyat natijalari, ishlab chiqarish xarajatlari, pul oqimlari hamda korxonaning tashqi muhit bilan bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlari kiradi.

Tadqiqot doirasida "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida korxonada shakllangan moliyaviy axborot bazasining boshqaruv samaradorligi va raqobatbardoshlikka ta'siri o'rganildi. Tahlil jarayonida korxonalar balans ko'rsatkichlari, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, joriy aktivlar va majburiyatlar holati, kapital tarkibi, debitor va kreditor qarzdorlik ko'rsatkichlari hamda foyda shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar kompleks ravishda baholandi.



O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, moliyaviy axborot bazasining sifat darajasi korxonada boshqaruvi barcha bosqichlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, axborotlarning tezkorligi va ishonchligi ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, moliyaviy resurslarni taqsimlash, xarajatlarni optimallashtirish hamda investitsion qarorlar qabul qilish jarayonlarida muhim omil hisoblanadi. Axborot bazasi yetarli darajada shakllanmagan holatlarda boshqaruv qarorlarida xatoliklar yuzaga kelishi, resurslardan samarasiz foydalanish hamda moliyaviy xavflarning ortishi kuzatiladi. Natijada korxonaning bozor sharoitidagi raqobat mavqeyi zaiflashishi mumkin.

Mazkur tadqiqot doirasida moliyaviy tahlil axborot bazasining korxonada raqobatbardoshligiga ta'siri "Farg'onaazot" AJ misolida o'rganildi. Korxonada O'zbekistonning yirik kimyo sanoati subyektlaridan biri bo'lib, azotli o'g'itlar va kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Korxonaning 2024-yil moliyaviy hisobotlari asosida moliyaviy tahlil axborot bazasi ko'rsatkichlari va ularning raqobatbardoshlikka ta'siri baholandi.



1-rasm. Moliyaviy tahlil axborot bazasining raqobatbardoshlikka ta'sir mexanizmi

Ushbu tizimda har bir bo'g'in o'zaro bog'liq holda faoliyat ko'rsatadi. Moliyaviy ma'lumotlarning sifat darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, boshqaruv qarorlarining aniqligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Korxonaning moliyaviy hisobot ma'lumotlari tahlili natijalariga ko'ra, 2024-yilda "Farg'onaazot" AJ aktivlari hajmida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

1-jadval. "Farg'onaazot" AJ moliyaviy ko'rsatkichlarining dinamikasi

Ko'rsatkich	2023-yil	2024-yil	O'zgarish (%)
Jami aktivlar (ming so'm)	2 050 224 385	2 079 479 281	+1.4
Sof tushum (ming so'm)	1 920 586 976	2 127 003 173	+10.7
Sof foyda (ming so'm)	229 180 277	76 246 272	-66.7
Xususiy kapital (ming so'm)	1 595 050 867	1 626 837 842	+2.0
Joriy majburiyatlar (ming so'm)	455 173 518	452 641 439	-0.5



Hisob-kitob natijalari shuni ko'rsatdiki, korxonaning sof tushum hajmi hisobot davrida o'sish tendensiyasini namoyon qilgan bo'lsa-da, sof foyda hajmida sezilarli pasayish kuzatilgan. Mazkur holat ishlab chiqarish hajmi va mahsulot realizatsiyasi oshganligiga qaramasdan, korxonaning xarajatlar tarkibida ayrim salbiy o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, ishlab chiqarish tannarxining ortishi, ma'muriy xarajatlar hajmining ko'payishi, valyuta kursi bilan bog'liq xarajatlar hamda boshqa moliyaviy xarajatlarning o'sishi sof moliyaviy natijaga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, korxonada faoliyatida faqat tushum hajmining oshishi yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun yetarli emasligini ham ta'kidlash zarur. Korxonada daromadlarining o'sishi bilan bir qatorda, xarajatlar ustidan samarali nazorat tizimining mavjudligi, moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanishi hamda ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy sharoitlarda moliyaviy tahlil axborot bazasi orqali xarajatlar tarkibini tezkor monitoring qilish va tahliliy ma'lumotlarni boshqaruv tizimiga integratsiya qilish korxonada foydalligini oshirish imkonini beradi.

Mazkur holat "Farg'onaazot" AJ misolida moliyaviy axborot bazasining korxonada raqobatbardoshligiga ta'sirini yaqqol namoyon etadi. Agar korxonada moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha tezkor monitoring va tahlil tizimi rivojlangan bo'lsa, xarajatlar tarkibidagi salbiy tendensiyalarni dastlabki bosqichlarda aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati oshadi. Natijada korxonaning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanib, bozor sharoitidagi raqobat ustunligi ham kuchayadi.

Mazkur holat korxonada faqat ishlab chiqarish hajmini oshirishning o'zi raqobatbardoshlikni ta'minlamasligini ko'rsatadi. Raqobat ustunligini shakllantirishda xarajatlarni nazorat qilish, resurslardan oqilona foydalanish va axborot tizimining samaradorligi katta ahamiyat kasb etadi. Korxonada moliyaviy axborot bazasining sifatini baholash maqsadida bir nechta ko'rsatkichlar hisoblandi.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti:

$$JL_k = \frac{\text{Joriy aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar}} = \frac{1230069792}{452641439} = 2.72$$

Mazkur ko'rsatkich korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash imkoniyati yetarli darajada shakllanganligini ifodalaydi. Joriy likvidlik koeffitsiyentining 2,72 darajada bo'lishi korxonaning har bir 1 so'mlik joriy majburiyatiga 2,72 so'mlik joriy aktivlar to'g'ri kelishini anglatadi. Bu holat korxonaning qisqa muddatli moliyaviy xavflarga nisbatan barqarorligini hamda to'lov qobiliyati yetarli ekanligini ko'rsatadi. Moliyaviy tahlil nuqtayi nazaridan mazkur ko'rsatkichning me'yoriy qiymati odatda 2,0–2,5 oralig'ida baholanadi, shuning uchun "Farg'onaazot" AJda ushbu ko'rsatkichning yuqori darajada shakllanganligi korxonaning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi.

Biroq joriy likvidlik koeffitsiyentining yuqori bo'lishi har doim ham korxonada faoliyati maksimal samaradorlik bilan tashkil etilganligini anglatmaydi. Ayrim hollarda bu ko'rsatkichning ortishi aylanma mablag'larning yetarli darajada harakat qilmayotganligi, debitor qarzdorlik hajmining ortib ketishi yoki ishlab chiqarish zaxiralarning me'yordan yuqori shakllanganligi bilan ham izohlanishi mumkin. Shu sababli korxonaning haqiqiy raqobatbardoshligini baholashda joriy likvidlik ko'rsatkichini boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar, xususan, rentabellik, aktivlar aylanishi, pul oqimlari va kapital tarkibi bilan birgalikda kompleks tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Moliyaviy tahlil axborot bazasi nuqtayi nazaridan ushbu ko'rsatkich boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim axborot manbasi sifatida xizmat qiladi. Chunki likvidlik darajasi korxonaning investitsion imkoniyatlari, moliyaviy mustaqilligi va bozor sharoitidagi raqobat ustunligini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada korxonada moliyaviy axborotlarning ishonchiligi va o'z vaqtida shakllanishi raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xususiy kapitalning aktivlardagi ulushi:

$$K = \frac{\text{Xususiy kapital}}{\text{Jami aktivlar}} = \frac{1626837842}{2079479281} = 0.78$$

Xususiy kapitalning aktivlar tarkibidagi ulushi korxonaning moliyaviy mustaqillik darajasini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Olingan natijalarga ko'ra, "Farg'onaazot" AJ aktivlarining qariyb 78 foizi xususiy mablag'lar hisobidan shakllanganligi aniqlandi. Bu esa korxonaning tashqi moliyalashtirish manbalariga qaralik darajasi nisbatan past ekanligini hamda moliyaviy barqarorlikning yetarli darajada shakllanganligini ko'rsatadi.



Moliyaviy tahlil nuqtayi nazaridan xususiy kapital ulushining yuqori bo'lishi korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish bilan bir qatorda, kredit tashkilotlari va investorlar oldidagi ishonchlilik darajasini ham mustahkamlaydi. Shuningdek, bunday holat korxonaga bozor sharoitlaridagi kutilmagan iqtisodiy o'zgarishlar va moliyaviy xatarlar ta'sirini nisbatan yengilroq qabul qilish imkonini beradi.

Korxonada raqobatbardoshligi bilan bog'liq jihatdan qaralganda, xususiy kapitalning yuqori ulushi ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi. Shu sababli moliyaviy tahlil axborot bazasida xususiy kapital tarkibi va uning dinamikasini muntazam nazorat qilish korxonaning uzoq muddatli strategik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo raqobatbardoshlik faqat moliyaviy barqarorlik bilan belgilanmaydi. Moliyaviy axborot bazasi tarkibidagi ma'lumotlarning boshqaruv qarorlariga qanchalik tez yetib borishi ham muhim hisoblanadi.

2-jadval. Moliyaviy axborot bazasi elementlarining korxonada raqobatbardoshligiga ta'siri

Axborot elementi	Korxonada faoliyatiga ta'siri	Raqobatbardoshlikka ta'siri
Moliyaviy hisobotlar	Moliyaviy holatni baholaydi	O'rta
Debitor qarzdorlik tahlili	Pul oqimini nazorat qiladi	Yuqori
Xarajatlar tahlili	Tannarxni kamaytiradi	Yuqori
Real vaqt rejimidagi monitoring	Qaror qabul qilishni tezlashtiradi	Juda yuqori
Prognozlash tizimlari	Risklarni kamaytiradi	Yuqori

"Farg'onaazot" AJ ma'lumotlarida debitor qarzdorlikning 289,8 mlrd so'mga yetganligi kuzatiladi. Bu holat mablag'lar aylanish tezligiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Agar korxonada zamonaviy axborot bazasi va avtomatlashtirilgan monitoring tizimi joriy etilsa, qarzdorlikni boshqarish samaradorligi ortadi va pul oqimlari optimallashtiriladi.

Shuningdek, ishlab chiqarish zaxiralari hajmi 812 mlrd so'mga yetganligi aniqlangan. Zaxiralarning ortiqcha hajmi ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashi mumkin, biroq aylanma mablag'larning muomaladan vaqtincha chiqib qolishi xavfini ham yuzaga keltiradi. Shu sababli axborot bazasi asosida zaxiralarni boshqarish tizimining takomillashtirilishi korxonada raqobat ustunligini oshirishga xizmat qiladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy tahlil axborot bazasi korxonada raqobatbardoshligini shakllantiruvchi strategik omillardan biri hisoblanadi. "Farg'onaazot" AJ misolida moliyaviy hisobot ma'lumotlari korxonaning moliyaviy holati nisbatan barqaror ekanligini ko'rsatgan bo'lsa-da, sof foydaning pasayishi va ayrim aylanma aktivlar hajmining oshishi boshqaruv qarorlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida moliyaviy tahlil axborot bazasining korxonada raqobatbardoshligiga ta'siri nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, korxonada faoliyatida moliyaviy axborot bazasi nafaqat hisobot ma'lumotlarini yig'ish va saqlash vositasi, balki boshqaruv qarorlarini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash hamda uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilovchi muhim boshqaruv instrumenti hisoblanadi.

"Farg'onaazot" AJ misolida amalga oshirilgan tahlillar natijasida korxonaning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari nisbatan ijobiy shakllanganligi aniqlandi. Xususan, joriy likvidlik koeffitsiyentining me'yoriy darajadan yuqori bo'lishi va xususiy kapital ulushining sezilarli hissaga ega ekanligi korxonaning moliyaviy mustaqilligi va to'lov qobiliyatini tavsiflaydi. Shu bilan birga, sof foyda hajmining kamayishi, debitor qarzdorlik va ishlab chiqarish zaxiralari hajmining ortishi korxonada moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida moliyaviy axborotlarning sifati, tezkorligi va ishonchligi korxonada raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslandi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt elementlarini moliyaviy tahlil tizimiga integratsiyalash boshqaruv qarorlarining aniqligini oshirish, moliyaviy xavflarni oldindan aniqlash hamda iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- korxonalarda moliyaviy tahlil axborot bazasini yagona integratsiyalashgan raqamli platforma asosida shakllantirish maqsadga muvofiq;
- moliyaviy ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish zarur;
- sun'iy intellekt va mashinali o'rganish texnologiyalari asosida moliyaviy xavflarni prognozlash tizimlarini keng qo'llash tavsiya etiladi;



– debitor qarzdorlik va ishlab chiqarish zaxiralarini boshqarishning avtomatlashtirilgan mexanizmlarini takomillashtirish lozim;

– boshqaruv hisobi, moliyaviy tahlil va strategik rejalashtirish tizimlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy iqtisodiy sharoitda moliyaviy tahlil axborot bazasini takomillashtirish korxonalarining moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy samaradorligi va bozor sharoitidagi raqobat ustunligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish hamda amaliy mexanizmlarni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности: учебник. — Минск: РИПО, 2019. — 373 с.
2. Brigham, E. F., & Houston, J. F. (2021). *Fundamentals of Financial Management* (16th ed.). Cengage Learning.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni, 05.10.2020. <https://lex.uz/docs/-5030957>
4. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, O'RBQ-404-son, 13.04.2016. <https://lex.uz/docs/-2931253>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati. (2026, 1-may). Sun'iy intellekt va raqamlashtirish sohasidagi vazifalar ko'rib chiqildi. <https://president.uz/oz/lists/view/9165>
6. Ibragimova, Z. Z. (2024). Korxonalarda boshqaruv hisobining axborot bazasini takomillashtirish. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(Maxsus son), 65–70.
7. Abdurazzoqov, H. A., Isakov, O. O., & Mahmudov, B. M. (2025). Iqtisodiy tahlil bosqichlarida axborot bazasini shakllantirish va ma'lumotlar sifatini ta'minlash. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 60(1), 70–77.
8. Kudbiyev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. (2022). Moliyaviy hisobotlardan moliyaviy menejmentda foydalanish masalalari. *Scientific Progress*, 3(4), 1030–1037.
9. Pardayev, J. (2026). Moliyaviy rejalashtirishning amaldagi muammolari va ularning yechimi yuzasidan takliflar. *Muhandislik va iqtisodiyot*, 4(2).
10. Muxamadjonova, D. (2026). Sun'iy intellekt va mashinali o'rganish texnologiyalari yordamida korxonalar moliyaviy holatini hududlar va tarmoqlar kesimida tahlil qilish. *Muhandislik va iqtisodiyot*, 4(4).
11. Horvathova, J., & Mokrisova, M. (2020). Business competitiveness, its financial and economic parameters. *Montenegrin Journal of Economics*, 16(1), 139–153.
12. Sedliačiková, M., Moresova, M., Aláč, P., & Drábek, J. (2021). How do behavioral aspects affect the financial decisions of managers and the competitiveness of enterprises? *Journal of Competitiveness*, 13(2), 99–116.
13. Tyukhtenko, N., Makarenko, S., Oliinyk, N., & Portugal, E. (2021). Innovative approaches to enterprise competitiveness assessment. *Marketing and Management of Innovations*, 1, 278–289.
14. Emadakov, R. Y. (2018). Analysis of competitiveness formation factors of the enterprise. *Vestnik of the Mari State University*.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>